

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

XABIBULLAYEVA MUXABBATXON NU'MONJONOVNA

**GEOGRAFIYA KURSLARINI MILLIY MEROS VA QADRIYATLAR
VOSITASIDA O'QITISH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
(Umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna

Geografiya kurslarini milliy meros va qadriyatlar vositasida o‘qitish samaradorligini takomillashtirish (Umumiy o‘rta ta’lim maktablari misolida) 3

Хабибуллаева Мухаббатхон Нуъмонжоновна

Повышение эффективности преподавания курсов географии с использованием национального наследия и ценностей (на примере общеобразовательных школ)..... 21

Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna

Improving the Effectiveness of Teaching Geography Courses through National Heritage and Values (Based on the Example of General Secondary Schools)..... 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 48

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

XABIBULLAYEVA MUXABBATXON NU'MONJONOVNA

**GEOGRAFIYA KURSLARINI MILLIY MEROS VA QADRIYATLAR
VOSITASIDA O'QITISH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
(Umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped 5174 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Qo‘ziboyeva Ozodxon Maxmudovna**
Geografiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Kiyamov Nishon Sadiqovich**
Pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Dilnoza Narzullayevna
Pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy. Tel.: (+99899) 776-77-25, faks: (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (№ _____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____da tarqatildi.
(2026-yil “___” _____ № _____-raqamli reestr bayonnomasi)

S.B. Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

B.A. Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

M.R. Usmanov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi bir martalik Ilmiy
seminar raisi, g.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Mafkuraviy globallashuv natijasida jahon hamjamiyati - barcha xalqlar o'z millatining intellektual salohiyatini oshirish, o'zligini tanitish va milliy g'ururini shakllantirish, ma'naviy- axloqiy, tarixiy qadriyatlar va etno-madaniyatini rivojlantirish, insonlar tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirish, umumbashariy qadriyatlarni asrash va rivojlantirib borishga alohida etibor berib kelmoqda. 1972-yil 16-noyabrda BMTning YUNESKO tashkiloti Bosh konferensiyasi tomonidan "Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya" qabul qilindi. Konvensiya 1975-yil 17-dekabrda kuchga kirdi. 2022-yil mart holatiga ko'ra uni 194 ta davlat ratifikatsiya qilgan. YUNESKO tomonidan muhofaza ostiga olingan obyekt va inshootlarni, ilmiy meros va qadriyatlarni kelajak avlodlarga yetkazish va ularni asrab-avaylashga doir amaliy ishlar olib borilmoqda. Janubiy Koreyada o'tkazilgan Butunjahon forumida qabul qilingan 2030-yilga qadar rivojlanish deklaratsiyasida "o'quvchilarda milliylik, san'at vositasida estetik did, dunyoqarash, go'zallikka intilish kabi sifatlarni shakllantirish, madaniy immunitetni tarkib toptirish"ga alohida etibor berilib, bu borada Rossiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlar jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun moddiy ishlab chiqarishni fan-texnikaning so'nggi yutuqlari asosida tashkil qilish, milliy meros va qadriyatlarga tayanilgan, rasm, chizmachilik, grafika tasviriy san'at sohalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash uchun yirik loyihalarni amaliyotga tatbiq etishga doir tizimli ishlarni olib borishmoqda.

Dunyoda o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishning mentorlik tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy izlanishlarga bo'lgan motivatsiyani oshirish, ular tomonidan o'zlashtirilgan o'quv-bilish faoliyati ko'nikmalari, milliy meros va qadriyatlarga tayanilgan ma'naviy-axloqiy sifatlar borasidagi o'ziga xos ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga o'quvchilarning sifatli ta'lim olishiga erishish jarayonida tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, har bir millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar uyg'unligida ta'limning amaliyot bilan uzluksizligini ta'minlashning yangi modellarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu borada geografiya ta'limi o'zining keng qamrovliligi, integrativ yondashuvlarni qo'llash, o'quvchilarda har tomonlama bilimlarni shakllantirish imkoniyatlarining kengligi bilan o'ziga xos o'ringa ega.

Respublikamizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar, fundamental va amaliy fanlar tarkibida konseptual o'zgarishlar bo'lgani kabi maktab geografiya darslarini qayta modernizatsiya qilishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil, barkamol, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni ilmiy, madaniy, tarixiy va ma'naviy meroslarga mos holda kamol toptirish, tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayanib, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash"¹ kunning muhim va dolzarb masalasidir. Bu barcha fanlar,

¹ Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". Uchunchi nashri.- Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.

jumladan, geografiya ta'limida o'ziga xos ijodiy metodlar, xususan, milliy meros va qadriyatlardan keng foydalanishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-son "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi 841-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni pedagogik nuqtayi nazardan o'rganish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish O.Musurmonova, O.Qo'ysinov, M.Quronov; qadriyatlar, ularning turlari, milliy, umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro aloqadorligi va mushtarakligini ta'minlash muammolarini yoritishda T.Abdullayeva, M.Abdurahmonov, Yu.Axmadaliyev, Q.Nazarov; F.R.Saydamatov; ijodkor o'quvchi shaxsini shakllantirish va rivojlantirish muammolari bo'yicha H.Hasanov, P.Musayev, R.Qurboniyozov, S.Abduvohidovlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

MDH davlatlari olimlaridan N.L.Barinch, Yu.V.Arutyunyan, I.I.Barinova, A.V.Darinskiy, L.I.Naumenko, I.V.Dushina, O.A.Manzadey, V.V.Nikolina, L.M.Drobijeva, Yu.G.Saushkin, V.K.Erjanovalar milliy qadriyatlar vositasida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishning nazariy-amaliy asoslarini tadqiq etganlar.

Xorijlik olimlardan F.C.Leeming, P.Feinsinger, U.Carlsson, Ch.Emmanuel, M.Guillen-Royo, J.Fien, R.Gerber, R.Peet, J.Isa va boshqalarning tadqiqotlarida geografik bilimlar berishda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning nazariy va amaliy darajasi asoslanib yoritib berilgan.

Yuqoridagi ishlarning tahlilida shuni kuzatdikki, bugungi kunda ilmiy izlanishlarda milliy qadriyatlar orqali vatanparvarlikni tarbiyalashga alohida e'tibor berilayotgan bo'lsa-da, umumta'lim maktablari geografiya ta'limi jarayonida o'quvchilarga geografik mavzularni tushuntirishda milliy meros va qadriyatlardan

foydalanish vositasida ta'lim-tarbiya uyg'unligi yo'llari, omillari, vositalarini aniqlab berish tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi "Farg'ona vodiysi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining geografik jihatlari" mavzusida olib borilayotgan kompleks ilmiy ishlar doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumta'lim maktablarining geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlardan foydalanish asosida o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirish va unga doir ilmiy-metodik tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumta'lim maktablari geografiya dars jarayoni va to'garaklarni tashkil etishda milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning tasviriy-didaktik jihatlari, ta'lim vositalarining tasniflanishida ta'lim, muhit, ular orasidagi uzluksizlik hamda uzviylikni hisobga olish asosida takomillashtirish,

geografiya ta'limida milliy meros, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning mazmuni, shakl-usullari, manbalarini ishlab chiqish, geografik bilim va tasavvurlarning ifodalanishini vizual anglashga yo'naltirilgan milliy meroslardan foydalanishning kompetensiyaviy yondashuv tamoyillarini tizimli qo'llash orqali aniqlashtirish;

umumta'lim maktablari geografiya darslarida, fan to'garaklarini tashkil etishda milliy meros va qadriyatlarining o'quvchilar ongi-shuurida shakllanganlik darajasini refleksiv tahlil qilish hamda tahliliy faoliyat natijalari kartografik savodxonlikning kafolatlangan samaradorligi ko'rsatkichlari orqali aniqlashtirish;

milliy meros va qadriyatlar vositasida ta'lim-tarbiya uzviyligini ta'minlashda o'quvchilarda geomadaniy axborotlar ko'lamini oshirishning axborot-metodik modelining funksional xususiyatlari, didaktik-metodik talablari, obyekt sifatida Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlaridagi ilmiy, madaniy meros obyektlarini kartalashtirish va interfaol kartografik qo'llanmalar asosida takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlarining umumta'lim maktablari tanlangan bo'lib, geografiya darslari milliy meros va qadriyatlardan foydalangan holda tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlariga Andijon viloyati maktablarida 310 nafar, Namangan viloyati maktablarida 254 nafar, Farg'ona viloyati maktablarida 232 nafar, jami 798 nafar o'quvchilar jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini umumta'lim maktablarining geografiya ta'limi jarayonida milliy meros va qadriyatlardan foydalanishni takomillashtirish mazmuni, metod, shakl va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda muammoga oid manbalarni qiyosiy o'rganish va tahlil, pedagogik kuzatish, anketa, suhbat, so'rov, pedagogik tajriba-sinov, qiyosiy tahlil, elektron botdan foydalanish, matematik-statistik tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- umumta'lim maktablarida geografiya dars jarayoni hamda fan to'garaklarini tashkil etishda milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning tasviriy-didaktik jihatlari chuqur tahlil qilinib, ularni ta'lim vositalari tizimida qo'llash mexanizmlari takomillashtirildi. Ta'lim vositalarini tasniflashda ta'lim muhiti omillari, o'quv jarayonining mazmuni, metodlari va shakllari o'rtasidagi uzviylik hamda uzluksizlik tamoyillarini hisobga olish asosida geografiya ta'limida milliy merosdan foydalanishning integrativ modeli ishlab chiqildi. Shuningdek, milliy merosga oid vizual materiallar, kartografik vositalar, tasviriy manbalar hamda didaktik resurslardan foydalanishning metodik asoslari aniqlashtirilib, ularning o'quvchilarda geografik tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi;

- geografiya ta'limida milliy meros, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarni Vatanga muhabbat, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalashning mazmuni, shakl va usullari hamda metodik manbalari tizimli ravishda ishlab chiqildi. Shu bilan birga, o'quvchilarda geografik bilim va tasavvurlarning vizual idrok etilishini ta'minlashga xizmat qiluvchi milliy meros namunalari (tarixiy-geografik obyektlar, madaniy landshaftlar, etnografik hududlar va boshqalar)dan foydalanishning samarali yo'llari, kompetensiyaviy yondashuv tamoyillarini tizimli qo'llash orqali geografiya ta'limining didaktik asoslari aniqlashtirilib, milliy meros vositasida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlar ishlab chiqildi;

- umumta'lim maktablarida geografiya darslari va fan to'garaklari jarayonida milliy meros hamda qadriyatlarning o'quvchilar ongida shakllanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan refleksiv-tahliliy yondashuv asosida diagnostik metodika taklif etildi. Ushbu metodika kartografik bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan diagnostik vositalar majmuini, amaliy kartografik topshiriqlar tizimini, kompetensiyaviy baholash mezonlarini hamda miqdoriy-statistik tahlil usullarini ta'lim samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan mezonlari takomillashtirildi.

- milliy meros va qadriyatlar vositasida ta'lim hamda tarbiya jarayonining uzviyligini ta'minlash maqsadida o'quvchilarda geomadaniy axborotlar ko'lamini kengaytirishga qaratilgan axborot-metodik model ishlab chiqildi; o'quvchilarga milliy meros va qadriyatlarni o'rgatishning funksional xususiyatlari, didaktik va metodik talablari ilmiy asosda ochib berilib, uni amaliyotga joriy etish mexanizmlari taklif etildi. Tadqiqot doirasida Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlarida joylashgan ilmiy, tarixiy va madaniy meros obyektlari geografik jihatdan tizimlashtirilib, kartalashtirildi hamda ular asosida interfaol kartografik qo'llanmalar yaratildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Umumta'lim maktablari geografiya darslarida didaktik ta'lim vositalari majmuasi, qo'shimcha manbalardan foydalanish, o'quvchilarning geografik bilim darajasi hamda fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga yo'naltirilgan "Sayohat darslarini tashkil etish", "Assesment", "Klaster", "Kuzatish", "Taqqoslash" kabi interfaol metodlardan foydalanish metodikasi takomillashtirilgan hamda dars jarayonida mavzularni yoritishda ilmiy, madaniy meros va qadriyatlardan

foydalanish asosida o'quvchilarning geografik mavzularni har tomonlama chuqur o'zlashtirishiga imkon beradigan "Toponomika" hamda "Geografiya ta'lim yo'nalishida pedagogik amaliyotni tashkil etish" nomli o'quv-uslubiy qo'llanma nashr etilgan;

Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlaridagi adabiyot va san'at muzeylari, o'lkashunoslik muzeylari, Xudoyorxon o'rdasi, Bobur, Cho'lpon, Habibiy, Haziniy, Nodirabegim, Saida Zunnunova, Muhammad Yusuf, Nabixon Jo'rayev, Boborahim Mashrab, Is'hoqxon To'ra Ibrat kabi allomalarimizning uy-muzeylari, ilmiy, madaniy meros obyektlari kartalashtirilib, ko'rsatmali materiallar, mavzularga moslashtirilgan fond materiallarining namunalari ishlab chiqilgan;

Umumta'lim maktabi o'quvchilarini Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o'rni beqiyos ekanligi belgilab o'tilgan. Bolalarning bilimi, o'zlashtirishi, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda geografiya ta'limi vositalaridan keng foydalanish lozim. Shuning uchun mavjud manbalar: tarixiy obidalar va adabiyotlardan keng foydalanish bo'yicha tavsiyalar, yosh pedagoglarga metodik yordam modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot davomida qo'llanilgan nazariy va amaliy metodlarning ilmiy asoslanganligi, tadqiqot jarayonida tizimli va kompetensiyaviy yondashuvlardan foydalanilgani bilan izohlanadi. Tadqiqotda Respublika muzeylari manbalari, shuningdek Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlarida joylashgan allomalar uy-muzeylari hamda tarixiy obidalar fond materiallariga tayanildi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilinib, ularning samaradorligi asoslab berildi. Tajriba-sinov jarayonida ishtirokchilarni tanlashda reprezentativlik tamoyiliga amal qilindi. Tadqiqot natijalari mavzuga oid ilmiy maqolalar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarda o'z aksini topgan. Ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan hamda olingan natijalar tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktab o'quvchilarining geografik bilim saviyasini oshirish, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, qoldirilgan milliy-ma'naviy meros, qadriyatlarga bo'lgan ta'sirchanlik munosabatining rivojlanishi bilan belgilanadi. O'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini yanada yaxshilashga xizmat qiladigan geografiya darslarining mohiyati, tuzilmaviy tarkibiy qismlari va ularni shakllantirishning tashkiliy-pedagogik modeli ishlab chiqilganligi bilan ahamiyatlidir. O'quvchilarning tarixiy geografik bilimi va qobiliyatlari shakllanganlik mezonlarining ko'rsatkich darajalari, shuningdek, ulardagi ijodiy faollik, yangicha fikrlash, falsafiy qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlangani, bilim darajasi an'anaviy va noan'anaviy ta'lim berish yo'llari va vositalarining o'zaro uzviy aloqadorligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan va quyidagi ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan: Farg'ona vodiysidagi allomalarning ilmiy, madaniy, tarixiy meroslari va qadriyatlari asosida o'quvchilarning vatanga mehr-muhabbati shakllantiriladi. Bu jarayonda maktab geografiya fani o'qituvchilari

pedagogik mahoratlari, qo'llagan metodlari va texnologiyalari ham ahamiyatlidir. Maktab geografiya ta'limi bo'yicha o'quv dasturlari, bosma va elektron darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar kabi geoaxborot vositalarining metodik majmuini takomillashtirishga, geografiya ta'limi nazariyasi va o'qitish metodikasi mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktab geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlardan foydalanish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

umumta'lim maktablari geografiya dars jarayonida milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning tasviriy-didaktik jihatlari, ta'lim vositalarini tasniflash, ta'lim, muhit, ular orasidagi uzluksizlik hamda uzviylikni hisobga olish va takomillashtirishga doir takliflar asosida quyidagi maktab darsliklari tanlab olindi: "O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi", "O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi", "Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". Dars jarayonida milliy meros va qadriyatlardan qanday foydalanish bo'yicha tavsiyalar "Geografiya ta'lim yo'nalishida pedagogik amaliyotni tashkil etish" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish markazi 2024-yil 31-yanvar 02/01-01-15-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rgazmalilik, elektron va boshqa vositalarning metodik ta'minoti takomillashtirilgan hamda geografiya darslarining samaradorligini har tomonlama oshirishga xizmat qilgan;

geografiya ta'limida milliy meros, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning mazmuni, shakl-usullari, manbalari ishlab chiqildi, didaktik asoslari geografik bilim va tasavvurlar ifodalanishini vizual anglashga yo'naltirilgan milliy meroslardan foydalanishda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillarini tizimli qo'llash orqali aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalar "Toponomika" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish markazi 2024-yil 31-yanvar 02/01-01-15 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'qituvchilarning pedagogik mahorati o'sishi, shuningdek, maktab o'quvchilarini vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlarning imkoniyatlari, o'quvchilar bilimi va dunyoqarashini shakllantirishda metodik tizimni takomillashtirishga xizmat qilgan;

umumta'lim maktablari geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarning o'quvchilar ongi-shuurida shakllanganlik darajalarini reflektiv tahlil qilish hamda tahliliy faoliyat natijalari kartografik savodxonlikning kafolatlangan samaradorligi ko'rsatkichlari orqali aniqlashtirishga oid takliflardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalida "Taqdimot" ko'rsatuvi ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 03-oktabrdagi 06-28-853-son ma'lumotnomasi). Natijada umumta'lim maktablarining geografiya darslarida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda shakllanganlik darajalarini reflektiv tahlil qilish, kartografik savodxonlik darajalarini takomillashtirish ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qilgan;

geografiya fanini o'qitishda milliy meros va qadriyatlar vositasida ta'lim-tarbiya uzviylikini ta'minlashda o'quvchilarda geomadaniy axborotlar ko'lamini oshirish, axborot-metodik modelining funksional xususiyatlari, didaktik, ergonomik metodik talablari, obyekt sifatidagi Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlaridagi ilmiy, madaniy meros obyektlari kartalashtirilib, interfaol kartografik qo'llanmalar asosida takomillashtirishga oid takliflardan XT-F2-001 "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanlarini o'qitishda milliy meros va qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirish" mavzusidagi fundamental loyihadagi vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Qo'qon davlat universitetining 2025-yil 24-noyabrdagi 159-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalardan maktab o'quvchilarida o'z o'lkasi, millatiga muhabbat, vatanparvarlikka doir tushunchalarining shakllanishiga va tarbiyaviy ishlarning samaradorligi oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Disertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 137 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Geografiya ta'limi jarayonida milliy meros, qadriyatlardan foydalanishning mazmun-mohiyati va nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni uyg'unlashtirishning o'ziga xosligi hamda imkoniyatlari, milliy meros va xalq madaniyati tarixining shakllanishi hamda rivojlanishining geografiya fani bilan o'zaro aloqadorligi, shuningdek, umumta'lim maktablarida ilmiy meros va qadriyatlarni o'qitishda sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda fan to'garaklarining o'rni va ahamiyati yoritilgan.

Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'quvchilarga o'rgatish, jamiyat va fan taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vatanimizda yetishib chiqqan buyuk ota-bobolarimiz hamda ulardan

qolgan milliy meros va qadriyatlarga bo'lgan mehr-muhabbatni oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur dolzarblikdan kelib chiqqan holda ushbu bobda geografiya ta'limi jarayonida milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning mazmun-mohiyati hamda nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, ajdodlarimiz qoldirgan madaniy meros va o'zbek xalq pedagogikasida barcha davrlar uchun dolzarb bo'lgan ilg'or g'oyalardan geografiya kurslarini o'qitishda foydalanish bo'yicha fikr-mulohazalar o'rganilgan va tahlil qilingan.



1-rasm. Geografiya ta'limida milliy meros va qadriyatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishga qo'yiladigan talablar

Geografiya ta'limining samaradorligini oshirishda zamonaviy ta'lim metodlari va vositalari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati ham katta. Ayniqsa, o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va olib borish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli geografiya ta'limida milliy meros va qadriyatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishga qo'yiladigan talablar aniqlandi (1-rasm) hamda ushbu talablar asosida tadqiqot davomida to'garaklar rejasi va dasturi ishlab chiqildi, "Yosh geograflar" to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, o'quvchilar bilan ekskursiyalar tashkil etildi.

Dissertatsiyaning "**Maktab geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlaridan foydalanish va uni metodik shart-sharoitlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida maktab geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlar asosida shakllanadigan ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari, geografiya ta'limi jarayonida milliy meros va qadriyat ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish hamda Farg'ona vodiysidagi tarixiy, milliy-madaniy va ilmiy meros hamda qadriyatlarni kartalashtirish metodikasini takomillashtirishga doir masalalar yoritilgan.


Shuningdek, mazkur bobda maktab geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan (1-jadval).

1-jadval

Milliy meros va qadriyatlar

Milliy ilmiy meros	Qadriyat
Bu ma'lum bir xalq yoki millat tufayli asrlar davomida gullab-yashnagan, jahon ilm-fani rivojiga hissa qo'shgan ilmiy nazariyalar, ilmiy bilimlar, ilmiy ishlar maktablari va an'analar majmuasidir.	Bu har bir xalq yoki jamiyat, millat, shaxs uchun eng muhim, qadrlı va ahamiyatli hisoblangan ma'naviy, axloqiy, madaniy, ijtimoiy va moddiy mezonlar majmuidir. Qadriyatlar har bir millat yoki shaxsning o'ziga xosligini aniqlashga xizmat qiladi.

Ushbu bobda tadqiqot ishining mazmunidan kelib chiqqan holda geografiya ta'limida pedagoglar tomonidan milliy meros va qadriyatlarni targ'ib etish natijasida ularda innovatsion yondashuvlarga oid ko'nikmalarni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, mazkur bobda geografiya kurslarida ilmiy va madaniy merosni tadqiq etish hamda ularni o'rganish usullarini takomillashtirishga yo'naltirilgan model ishlab chiqildi.




2-rasm. Milliy meros turlari.

Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta bo'lib, bunday texnologiyalar orqali dars mashg'ulotlarida o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy g'urur hamda ajdodlar merosiga hurmat tuyg'ularini shakllantirishga erishish mumkin (2-rasm).

Milliy urf-odatlarini nishonlash jarayonida o'ziga xos kiyimlar kiyish, mahalladagi keksalar, kasallar va nogironlar yashaydigan xonadonlar holidan xabar olish, shuningdek, qiyin ishlarni mahalla yoshlari bilan birgalikda bajarish kabi jihatlarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Shuningdek, umumta'lim maktablarining geografiya kurslarida ajdodlar merosi va milliy qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlari hamda afzalliklari aniqlashtirilgan va sinflar kesimida tahlil qilingan.

Geografiya fanining milliy meros va xalq madaniyati tarixining shakllanishi hamda rivojlanishi bilan aloqadorligi, shuningdek, mazkur aloqadorlikning tarixiy jihatlari ochib berilgan. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish geografiya fani o'qituvchisidan chuqur bilim, pedagogik mahorat va tajribani talab etadi (3-rasm).



3-rasm. O'zbek milliy urf-odatlar.

Bunday ishlarni tashkil etishda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarning faolligi va tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash, ular tomonidan bildirilgan yangi g'oya va fikrlarni rag'batlantirish, ularga yo'l-yo'riqlar ko'rsatish hamda mas'uliyatni oshirishdan iboratdir. Shu sababli tadqiqot davomida nafaqat o'quvchilar bilan, balki geografiya fani o'qituvchilari bilan ham hamkorlikda faoliyat olib borildi, ularning geografiya darslarini milliy meros va qadriyatlar vositasida tashkil etish tajribalari o'rganildi, tahlil qilindi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.


So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ta'lim-tarbiya sohasida ko'plab ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Milliylikimiz tiklanib, moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizning yangi sahifalari ochildi. Shuningdek, qisqa vaqt ichida yoshlar uchun mukammal sharoitlar yaratildiki, bunga yurtimizda qad rostlayotgan zamonaviy maktablar, kasb-hunar maktablari, xususiy ta'lim muassasalari hamda ularning zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishini misol qilib keltirish mumkin (4-rasm).



4-rasm. Milliy meros, qadriyat, urf-odat va ularni turlari

Mazkur bobda umumta'lim maktablari geografiya kurslarini milliy meros va qadriyatlar vositasida o'qitishni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, innovatsion ta'lim texnologiyalarini geografiya


daralariga tatbiq etish bo'yicha namunalar – "Yulduzlar galaktikasi", "Xavfli daryo", "Yomg'ir", "Charxpalak", "Keys-stadi", "Sirli shahar", "Besh+1", "10×10" – ishlab chiqilgan.



6-rasm. Andijon viloyati ilmiy, madaniy meros obyektlari. Mazkur xarita muallif tomonidan ishlab chiqildi. (dala tadqiqoti va Milliy ensklopediya ma'lumotlari asosida tuzildi.

Shuningdek, dissertatsiyada Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlaridagi tarixiy, ilmiy hamda madaniy meros obyektlarining kartalari ishlab chiqilgan. Xaritalarda har bir viloyatning arxeologik, arxitektura va monumental yodgorliklari hamda diqqatga sazovor joylari taqdim etilib, ularning har biriga tavsif berilgan. Masalan, Andijon viloyatida 221 ta arxeologik, 74 ta arxitektura, 42 ta monumental tarixiy va ilmiy yodgorliklar aniqlangan bo'lib, ulardan diqqatga sazovor joylar tumani soni 85 tani tashkil etadi (6-rasm).

Tadqiqot natijalari va kartalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har uchala viloyatda ham madaniy meros obyektlari, asosan, sug'oriladigan dehqonchilik hududlari va yirik karvon yo'llari bo'yida joylashgan shaharlarda ko'proq uchraydi. Geografiya darslarida ota-bobolarimizdan qolgan ilmiy meros va madaniy obyektlarni o'rganish jarayonida mavzuga mos holda Farg'ona vodiysiga oid ilmiy, madaniy va tarixiy obyektlar bo'yicha turli ma'lumotlarni to'plash, ularni o'zaro bog'lash hamda mavjud manbalar bilan taqqoslash ishlari amalga oshirildi (7-rasm).



7-rasm. Farg'ona vodiysining ilmiy, madaniy meros obyektlari. Mazkur xarita muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning “Maktab geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlardan foydalanish bo'yicha tajriba-sinov ishlari hamda uning samaradorligi” deb nomlangan uchinchi bobida maktab geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning metodik tavsifi, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, shuningdek, tajriba-sinov natijalariga matematik-statistik jihatdan ishlov berish hamda olingan natijalar tahlili yoritilgan.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi umumta'lim maktablari geografiya kurslarini milliy meros va qadriyatlar vositasida o'qitish samaradorligini takomillashtirish darajasini aniqlashdan iborat. Tajriba-sinov ishlarida quyidagi asosiy vazifalar amalga oshirildi:

- tajriba-sinov ishlarini tashkil etish bosqichlari aniqlandi;
- tajriba-sinovga oid dasturlar, tadbirlar rejaları hamda kutilayotgan natijalar belgilandi;
- umumta'lim maktablari geografiya kurslarini milliy meros va qadriyatlar vositasida o'qitish samaradorligini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;
- tadqiqot muammosiga doir pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar mazmuni o'rganildi, umumta'lim maktablarida geografiya kurslarini milliy meros va qadriyatlar vositasida o'qitish samaradorligini takomillashtirish holati tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlari asosan uch bosqichda o'tkazildi:

birinchi bosqich – aniqlovchi (shakllantiruvchi), 2021–2022-yillar (izlanish-tayyorgarlik bosqichi);

ikkinchi bosqich – ta’kidlovchi, 2022–2023-yillar (tajriba-sinov materiallarini taqdim etish va sinovdan o’tkazish bosqichi);

uchinchi bosqich – yakunlovchi, 2023–2024-yillar (umumta’lim maktablarida geografiya kurslarini milliy meros va qadriyatlar vositasida o’qitish samaradorligini tahlil qilish bosqichi).

Tajriba-sinov ishlarida Andijon viloyatidagi 4 ta, Farg’ona viloyatidagi 4 ta hamda Namangan viloyatidagi 4 ta umumta’lim maktablaridan jami 798 nafar 7–8-sinf o’quvchilari ishtirok etdi (2-jadval).

2-jadval

Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan o’quvchilarning tajriba va nazorat guruhleri

№	Hudud (maktablari)	Sinflar	O’quvchilar soni	Tajriba-sinov guruhleri	
				Tajriba sinflarida	Nazorat Sinflarida
1	Andijon viloyati	7	154	78	76
		8	156	79	77
Jami			310	157	153
2		7	124	63	61
	Namangan viloyati	8	129	65	64
Jami			253	128	125
3	Farg’ona viloyati	7	119	58	61
		8	116	60	56
Jami			235	118	117
Jami 7-sinflar			397	199	198
Jami 8-sinflar			401	204	197
Hammasi			798	403	395

